

MAKTABGACHA YOSH DAVRIDA DUDUQLANISHNI BARTARAF ETISHGA YO‘NALTIRILGAN KOMPLEKS LOGOPEDIK MASHG‘ULOTLAR TIZIMI

D.M.Buzrukova

FarDU katta o‘qituvchi

A.A.Muxidinova

FarDU talaba

MAQOLA MALUMOTI

MAQOLA TARIXI:

Received: 30.01.2026

Revised: 31.01.2026

Accepted: 01.02.2026

KALIT SO‘ZLAR:

duduqlanish, maktabgacha yosh, kompleks yondashuv, logopedik mashg‘ulotlar, fonematik idrok, nutq motorikasi, nutq terapiyasi.

ANNOTATSIYA:

Maqolada maktabgacha yosh davrida kuzatiladigan duduqlanish nutq buzilishining psixolingvistik va neyropsixologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Duduqlanishni bartaraf etishga yo‘naltirilgan kompleks logopedik mashg‘ulotlar tizimining mazmuni, tuzilishi va samaradorligi ilmiy asosda yoritiladi. Tadqiqotda fonematik idrok, nutq motorikasi, nafas va ritmni muvofiqlashtirish mashqlari, shuningdek, psixologik qo‘llab-quvvatlash elementlarining o‘zaro uyg‘unligi duduqlanishni korreksiyalashdagi asosiy shart sifatida asoslab beriladi. Maqola natijalari logopedlar, maktabgacha ta’lim pedagoglari hamda ota-onalar uchun amaliy ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq buzilishlari, xususan duduqlanish muammosi dolzarb ilmiy va amaliy masalalardan biri hisoblanadi.

Duduqlanish – bu bolalar orasida uchraydigan eng murakkab nutq buzilishlaridan biri bo‘lib, u nafaqat nutq jarayonini ya’ni bolaning nutqiy faoliyatini cheklabgina qolmay, balki bolaning psixologik holatini, uning shaxsiy rivojlanishini, o‘z-o‘zini baholashini hamda

ijtimoiy moslashuviga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, duduqlanish erta yoshda paydo bo'lgan taqdirda, u o'z vaqtida va tizimli yondashuv asosida korreksiyalanmasa, keyingi ta'lim bosqichlarida barqaror nutqiy muammo sifatida saqlanib qolishi mumkin. Duduqlanishning kelib chiqishida irsiy moyillik, markaziy asab tizimining funksional yetilmaganligi, perinatal davrdagi shikastlanishlar va psixosotsial stress omillari muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, oilaviy muhitdagi noxush holatlar, qo'rquv yoki keskin stress holatlari bolalarda diduqlanishning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu bois maktabgacha yosh davrida duduqlanishni bartaraf etishga qaratilgan logopedik ishlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha yosh davrida nutq faoliyati faol shakllanadi, tilning fonetik, leksik va grammatik tomonlari jadal rivojlanadi. Aynan shu davrda nutq mexanizmlarining yetarli darajada muvofiqlashmaganligi duduqlanishning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Ilmiy manbalarda duduqlanish ko'pincha nutq apparati mushaklarining spazmatik holati, nutq ritmi va tempining buzilishi hamda markaziy asab tizimidagi funksional nomutanosibliklar bilan izohlanadi.

Duduqlanuvchi bolalarda fonematik idrokning yetarlicha shakllanmaganligi, nutq motorikasining sustligi va ixtiyoriy nafas boshqaruvining buzilishi tez-tez uchraydi. Bundan tashqari, psixologik omillar – qo'rquv, xavotir, o'ziga ishonchsizlik kabi holatlar duduqlanishni kuchaytiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli duduqlanishni bartaraf etish faqat nutq texnikasini to'g'rilash bilan cheklanmasligi, balki bolaning umumiy psixik holatini barqarorlashtirishga ham qaratilishi lozim.

Duduqlanishni bartaraf etishga yo'naltirilgan kompleks logopedik mashg'ulotlar tizimi bir-biri bilan uzviy bog'langan bir nechta yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Bunda fonematik idrokni rivojlantirish, nutq motorikasini faollashtirish, nafas va ovoz ustida ishlash, shuningdek, nutqning ritmik-tashkiliy tomonlarini shakllantirish asosiy o'rin tutadi. Ushbu yo'nalishlar alohida-alohida emas, balki yagona tizim sifatida olib borilgandagina samarali natija beradi.

Fonematik idrok ustida olib boriladigan mashg'ulotlar bolaning tovushlarni farqlash, ularni ongli ravishda idrok etish va nutq jarayonida to'g'ri qo'llash qobiliyatini rivojlantiradi. Bu jarayon nutqning barqarorlashuviga xizmat qilib, duduqlanish epizodlarining kamayishiga yordam beradi. Nutq motorikasini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar esa artikulyatsiya apparati harakatlarini erkinlashtirib, nutqning silliq va uzluksiz kechishini ta'minlaydi.

Kompleks tizimda nafas mashqlarining o'zni alohida ahamiyatga ega. To'g'ri tashkil etilgan nutqiy nafas duduqlanishni kamaytirishda muhim omil hisoblanadi. Nafas mashqlari nutq tempini me'yorlashtirish, ovoz chiqarish jarayonini boshqarish va nutq davomiyligini uzaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ritm va intonatsiya ustida olib boriladigan mashg'ulotlar bolada nutqiy ishonchni shakllantiradi.

Zamonaviy logopediya fani duduqlanishni faqat artikulyatsion yoki nafas buzilishi sifatida emas, balki murakkab psixofiziologik jarayon sifatida talqin qiladi. Bu esa korreksion ishlarni yagona metod bilan emas, balki kompleks logopedik mashg'ulotlar tizimi orqali tashkil etishni taqozo etadi. Duduqlanishda bolalar bilan olib borilgan psixologik va logopedik yondashuvlarning uyg'unligi – zamonaviy defektologiyaning asosiy metodologik tamoyillaridan biri bo'lib, bu yo'nalishda olib boriladigan ilmiy izlanishlar va amaliy tajribalar yuqori ahamiyat kasb etadi. Psixologik yondashuvning markaziy tamoyillari — bolaning emotsional muvozanatini tiklash, qo'rquv darajasini kamaytirish, ijtimoiy vaziyatlarda nutqiy ishonchni shakllantirishdan iborat. Kompleks logopedik mashg'ulotlar tizimida psixologik qo'llab-quvvatlash ham muhim komponent hisoblanadi. Bolaga ijobiy emotsional muhit yaratish, muvaffaqiyat hissini kuchaytirish va nutqiy qo'rquvni kamaytirish duduqlanishni bartaraf etish jarayonining ajralmas qismidir. Bu jarayonda pedagog, logoped va ota-onaning hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Logopedik yondashuv esa fonetik, fonematik va ritmik nutq elementlarini korreksiyalash, nutqning ravonligini qayta tiklashga qaratilgan jarayondir. Duduqlangan bolalarda nutqni rivojlantirish usullaridan biri bu nutq terapiyasi. Nutq terapevtlari duduqlangan bolalar bilan turli texnika va mashqlar yordamida nutqining ravonligini yaxshilashga yordam beradigan malakali mutaxassislardir. Masalan: Logopedlar-nutq apparati mushaklari koordinatsiyasini to'g'rilash, artikulyatsion ko'nikmalarni rivojlantirish va nutqning ritmini yaxshilashga qaratilgan. Duduqlanishni korreksiyalashda logopedlar tomonidan quyidagi mashg'ulotlar keng qo'llanadi:

Artikulyatsion gimnastika– lab, til, yumshoq tanglay mushaklarini mustahkamlash;
Fonetik mashqlar – tovushlarni aniq va ravon talaffuz qilish;

Sillabik nutq mashqlari – so'zlarni bo'g'inlarga bo'lib talaffuz qilish orqali ritmni barqarorlashtirish;

Psixoterapevtlar – bolaning emotsional holatini barqarorlashtirish va psixologik omillarni bartaraf etish;

Kognitiv-xulqiy terapiya – bolaning nutq bilan bog‘liq salbiy fikrlarini ijobiyga almashtirish;

Oila terapiyasi – ota-onalarni to‘g‘ri muloqot va qo‘llab-quvvatlash usullariga o‘rgatish;

Relaksatsiya mashqlari – mushaklarni bo‘shashtirish, stressni kamaytirish; Nutq ravonligi to‘g‘ri nafas olish bilan bevosita bog‘liq. Shu bois duduqlanishni korreksiyasida maxsus nafas mashqlari muhim o‘rin tutadi: Diafragmal nafas – nutq vaqtida nafasning yetarli bo‘lishini ta‘minlaydi;

Ritmli nafas va talaffuz – she‘r o‘qish, qo‘shiq aytish orqali nafas-nutq koordinatsiyasini yaxshilash.

Duduqlangan bolalar bilan olib boriladigan nutq terapiyasi kompleks yondashuvni talab etadi. Bunda logopedik mashg‘ulotlar psixologik yordam, pedagogik qo‘llab-quvvatlash va oilaviy muhit bilan uzviy bog‘liq holda tashkil etiladi. Nutq terapiyasining asosiy maqsadi — bolaning nutqini ravonlashtirish, nutqiy qo‘rquvni kamaytirish va kommunikativ faolligini oshirishdan iborat.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yosh davrida duduqlanishni bartaraf etish murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u tizimli va kompleks yondashuvni talab etadi. Duduqlanishni korreksiyalashda fonematik idrok, nutq motorikasi, nafas va ritmni rivojlantirish mashqlarining uyg‘unligi yuqori samaradorlikni ta‘minlaydi. Kompleks logopedik mashg‘ulotlar tizimi bolaning nafaqat nutqini, balki umumiy psixik holatini ham barqarorlashtirishga xizmat qiladi. Duduqlangan bolalar bilan nutq terapiyasi tizimli, izchil va individual yondashuv asosida olib borilishi zarur. Faqatgina logopedik mashqlar bilangina cheklanib qolmasdan, psixologik va pedagogik ta‘sir choralarini ham uyg‘unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Erta tashxis qo‘yish va o‘z vaqtida boshlangan nutq terapiyasi bolaning nutqidagi nuqsonlarni bartaraf etish bilan birga, uning shaxs sifatida sog‘lom rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu bois duduqlanish muammosiga kompleks yondashuv zamonaviy nutq terapiyasining eng muhim talablaridan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada yoritilgan ilmiy xulosalar maktabgacha ta‘lim muassasalarida duduqlanuvchi bolalar bilan olib boriladigan logopedik ishlarni takomillashtirishga xizmat qilishi mumkin. Ushbu yondashuv duduqlanishni erta bosqichda bartaraf etish va bolaning keyingi ta‘lim jarayonida muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta‘minlash uchun mustahkam ilmiy-amaliy asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xamidova. M.U. Maxsus pedagogika /o'quv qo'llanma/. -Toshkent: 2020.
2. Ayupova.M.Y. Logopediya. -Toshkent: 2007.
3. Raxmanova V.S. Korreksion pedagogika va logopediya. /o'quv qo'llanma/ -Toshkent: 2007.
4. Mo'minova L.R, Maxkamova U.A Duduqlanishni bartaraf etish texnologiyasi. -Toshkent: 2020.
5. Shomaxmudova R, Po'latova X.M. Duduqlanuvchi bolalar bilan olib boriladigan logopedik ish tizimi /o'quv-metodik qo'llanma/ - Toshkent: 2016.
6. Buzrukova D.,Sultonova G. Duduqlanishni bartaraf etishda psixologik va logopedik yondashuvlarning o'zaro bog'liqligi. Maqola. "Zamonaviy dunyoda amaliy fanlar": muammolar va yechimlar" nomli ilmiy, masofaviy,onlayn konferensiya. INNOVATIVE AKADEMY. 08.12.2025